

AMIR TEMUR TARIXI VA UNING SIYOSIY ME'ROSI.

Suyunova Shaxzoda Bekboy qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, faoliyati hamda uning siyosiy me'rosi atroflicha yoritiladi. Maqolada Amir Temurning O'rta Osiyoda markazlashgan kuchli davlat barpo etishdagi sa'y harakatlari, davlat boshqaruvu tizimi, ichki va tashqi siyosatdagi yutuqlari tahlil qilinadi. Shuningdek uning "Temur tuzuklari" asari orqali ifodalangan boshqaruv tamoyillari, adolat, tartib va qonun ustuvorligi g'oyalari keng yoritiladi. Xususan, Amir temurning siyosiy me'rosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda davlatimizning siyosiy tafakkurida tutgan o'rni haqida ochib boriladi.*

Kalit so'zlar: *Kesh, Samarqand, adolat, davlat boshqaruvi, ilm-fan, me'ros, "Temur tuzuklari".*

Avvalo Amir Temur bobomizning tarixiga to'xtaladigan bo'lsak u 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shaxrisabz) yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida dunyoga keldi.

Bobomiz yoshligidan juda iqtidorli va iste'dodli edilar. "Savod chiqarish uchun muallim saboqiga borganimda hali juda yosh edim. Hattoki yozuv taxtachasiga surkalgan oq mumni ham qirib tashlashga-da kuchim yetmasdi" [4.10-b] degan edi.

Ko'rinib turibdiki Amir Temur juda kichkinaligida maktabga bora boshlagan edi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki bobomiz o'n to'rt yoshlarida "Hofiz" (Qur'onni yoddan o'quvchi) unvoniga ega bo'lganlar va o'n olti yoshlarida barcha ilmlarni o'zlashtirib bo'lgandilar.

Mo'g'ulistonlik Tug'luq Temurxon bosqinidan so'ng Amir Temur Chingizxon avlodlari nomidan Movarounnahrni, ya'ni, Amudaryo hamda Sirdaryo oralig'ini bir o'zi boshqara boshlaydi. 1386-yildan Amir Temurning mashhur yurishlari boshlanadi. Natijada butun Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gurjiston hamda Kavkazorti hududlari zabt etiladi. Hindistonga yurishi natijasida 1398-yili Dehli ishg'ol qilinadi. 1400-yili Kichik Osiyodagi Sivas, Aleppo (Halab), Damashq hamda Bag'dod egallanadi. 1402-yili Amir Temur Anqara yaqinida Turk sultoni Boyazid ustidan g'alaba qozonib, uni asir oldi. 1404-yil oxirida puxta tayyorgarlikdan so'ng Xitoyga harbiy yurish boshlaydi, ammo bu yurish 1405-yil 18-fevralda O'tror shahrida Amir Temurning vafoti tufayli to'xtaydi. [3.5-6b]

O'rta asrlar tarixida ulug' sarkarda, buyuk davlat arbobi Amir Temur nomi jahon siyosati, madaniyati va harbiy san'atida alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyoning birlashuvi va uning qayta tiklanib ulkan davlatga aylanishida bobomizning xizmatlari beqiyos katta.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Bu Benazir zotning qanday milliy zamin va tarixiy sharoitda o'sib-ulg'aygani, qay tariqa shundy yuksak cho'qqilarga ko'tarilgani, zafarli yurishlari haqida uning nafaqat davlat arbobi va yengilmas sarkarda, ayni vaqtda

inson sifatidagi fazilatlari, ichki dunyosi va kechinmalari haqida Sharq davlatlari bilan birga olis Yevropa mamlakatlarida ham bundan necha yuz yillar avval ko'pdan-ko'p ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani ma'lum",- deya faxr va g'urur bilan so'zlagan edi.[1.6-b].

Yana aytib o'tishimiz joizki, Amir Temurda insoniylik fazilatlari juda yuqori drajada shakllangan edi. Ibn Arabshohning ta'rifiga e'tabor bersak: "Temur yoshligidan aqilli, ochiq ko'ngil, jur'atli, qat'iy kuchli va qobilyatli bo'lib o'sdi". [2.562-b]. Amir Temurning eng katta siyosiy me'rosi "Temur tuzuklari" hisoblanadi. Unda Temurning davlatni boshqarish, qo'shnlarni tartibga solish, mansabdorlar vazifalari, diplomatiya, adolat va tartib masalalariga bag'ishlangan siyosiy-huquqiy risolasi aks etgan.

"Hammaga o'xshab men ham bahodirlikni urush yutuqlarining omillaridan deb bilaman. Ammo shuni bilish kerakki bahodirlik deganda kuchgina kifoya qilmaydi". [2.335-b].

Amir Temur boshqaruvining asosiy formulasi: "Kuch-adolatdadir". Amir Temur iqtisodiy, siyosiy, harbiy va soliq ishlarida juda ham adolatli edi. Amir Temur o'z yonidagi kishilari, mahrami asrirlari bilan har ishni kelishib olardi.

"Ular bilan sirdoshlik qilib yashirin ishlar, maxfiy sirlarni ularga topshirdim",-deya ta'kidlaydi.[1.89-b]. Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzgan edi va bu ishda u songa emas, balki sifatiga e'tabor berdi. Davlat muassasalariga iymonli va insofli, diyonatli va tashabbuskor odamlarni o'tqazdi.

Amir Temurning fikricha vazir to'rt sifatga ega bo'lishi lozim edi:

1. Asllik va toza nasllik,
2. Aqlli va farosatlilik,
3. Raiyat va sipoh ahvolidan boxabarlik,
4. Sabr-toqatlik va tinchliksevarlik. [1.96-b]

Amir Temur siyosatda bir tomondan qat'iyatli, bir tomondan esa o'ta mehribon va shavqatli bo'lgan. "Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q va tadbiri tog'iga na tekishigu, na g'adir-budir orqali yo'l topilardi.[5.71-b]

"Ochiq yuzlilik, Rahim-shavqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib jabr-zulmdan uzoqda bo'ldim".[1.89-b] Huddi shu jummalarning isbotini bugungi kunda yurtboshimizning siyosatlarida ko'rib turganimiz ham bejiz emas.

Ulug' ajdodimiz garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lsada, kuch qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l tadbir topa olish qobilyati noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish va u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda umuman aytganda hayot sirlarini anglab yetishda "Temur tuzuklari" bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.[1.9-b]

“Faqat ayrim shaxslar oʻz ortidan oʻchmas iz qoldirgan insonlargina eslanadilar. Basharti sen ham kuzda bandidan yaproqdek yengil unutilib ketishni istamasang, odamlarning qalbida unutilmas nom qoldirishing kerak.[4.485-b] Aynan Amir Temur insonlar qalbida oʻchmas iz qoldirgan desak hech ham mubolagʻa boʻlmaydi. Bobomizning oʻzi tomonidan aytilgan gaplari hayotiga shior boʻldi va aynan oʻz orzusiga erishdi. Bugungi kunda nafaqat bizning xalqimiz balki butun dunyo tomonidan eʼtirof etilib biz uchun faxr va gʻurur boʻlib hisoblanmoqda.

Amir Temurning birinchi xizmati shundaki, uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan feodal tarqoqlikka barham berib, markaziy feodal davlatga asos soldi va xalqni moʻgʻul istilochilari zulmidan xalos qildi. Bu Amir Temurning vatani, xalqi va tarix oldida qilgan yana bir xizmati. Sohibqiron vatani va xalqini butun dunyo oldida yuksakka koʻtardi, ulugʻladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Amir Temurning bunyodkorlik siyosati natijasida Samarqand ilm-fan, madaniyat va meʼmorchilikning yirik markaziga aylandi.

“Temur tuzuklari orqali ishlab chiqqan davlat boshqaruvi, tartib intizom va adolatga oid tamoillar esa keying asrlar davlatlarining siyosiy tizimiga bevosita taʼsir koʻrsatdi. Temuriylar, Boburiylar va boshqa sulolalar uning siyosiy meʼrosidan ilhomlanib davlat boshqaruvini takomillashtirdilar.

Umuman olganda, Amir Temur tarixi nafaqat oʻtmishning, balki bugungi davlatchilik, rahbarlik, adolat va strategik boshqaruv borasida ham ibrat manbayidir.

Uning siyosiy meʼrosi milliy oʻzlikni anglash, davlat mustaqilligi va maʼnaviy meʼrosni qadrlash jarayonida ham muhim oʻrin tutadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. “Temur tuzuklari”. Toshkent. 2011.
2. “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati”. Hamdam Sodiqov. Toshkent. 2018.
3. “Temuriylar maʼnaviyati”. J.Yaxshiqulov. SH.Ahadov. Toshkent. 1999.
4. “Sohibqiron – Jahongir Temur”. Maisel Brion Menkim. 2023.
5. “Amir Temur tarixi”. Ibn Arabshox. Toshkent. 1992.
6. “Amir Temurni yod etib”. Boʻriboy Ahmedov. Tosh-Oʻzb. 1996.